

**O'RTA OSIYODA XIX -ASR TARIXI MAHALLIY TARIXCHILAR TOMONIDAN
TOMONIDAN YORITILISHI (BUXORO AMIRLIGI MISOLIDA)**

Jahongir Xusanov

NDKTU akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Zavqiddin Buriyev

NDKTU akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: XIX asrda O'rta Osiyoda yuz bergan voqealarning o'sha davr tarixchilari tomonidan yoritilishi, ularning qay darajada haqqoniyligini o'rganish bugungi kun tarixchilari oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Quyida XIX asr oxiri XX asr boshlarida mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar va ularning bugungi tarix fani uchun ahamiyati qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Jumaquli Urgutiy, "Ta'rix Xumuliy", mang'itlar sulolasi, Muhammad Rahim, Muhammad Doniyolbiy otaliq, Amir Shohmurod, Amir Haydar, Abu Tohirxo'ja Samarqandiy, "Tuhfai xoniy", "Kitobi Nodiriy", "Tarixi Amir Haydar", "Fathnoma yi salatin (Tarix-i Sultan Sayyid Amir Nasrulloh)",

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ham O'rta Osiyoda tarix ilmi va tarixiy bilimlarga bo'lgan qiziqish zarracha susaymadi. Chunki xalqimiz qadimgi davrlardan oq tarix ilmini g'oyatga qadrlaganlar tarixni buzib ko'rsatishga aslo yo'l qo'ymaganlar. Bu davrda ham tarix ilmini rivoj toptirilganligi yozilgan ko'plab tarixiy asarlar misolida yaqqol ko'rinadi. O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid XIX asrda yaratilgan yangi tarixiy manbalarni o'rganish va tarjima qilish, chop etish manbashunoslik va tarixshunoslik fanlarining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Yozma manbalarda xalqimiz tarixiga oid masalalar o'z aksini topgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar asosida o'tmishning muhim voqealarini o'rganish mumkin bo'ladi. Amirlik hayotiga oid muhim manbalardan biri XIX asrda yashagan Jumaquli Urgutiyning "Ta'rix Xumuliy" asaridir¹⁰⁵. Muallifning to'liq ismi Jumaquli ibn So'fi Muhammad Tag'oyi at-Turkiy as-Samarqandiy ash SHavdoriy al-Urgutiy. Xumuliy hijriy 1234 yilda (1809 y) asarni yozish uchun Muhammad eshondan "ma'mur" olgan¹⁰⁶. "Ta'rix Xumuliy"ni, muallifning o'zi "risola", "tazkira" va "muktasar" deb nomlagan. Asar muqaddima, bir maqola va xotimadan iborat. "Tarixi Xumuliy" asarida voqealar bayoni Nodirshoh (vaf. 1747) hayotining oxirgi yillari tafsilotlaridan boshlanib, mang'itlar sulolasi vakillari Muhammad Rahim, Muhammad Doniyolbiy otaliq, amir SHohmurod va amir Haydar (1800-1826) hukmronlik qilgan davrlarini aks ettirish bilan birga, asar amir

¹⁰⁵ Холназарова Л.С. XIX аср маҳаллий муаллифларнинг асарларида манғит хумдорлари тарихи\ XIX – XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. Тошкент – 2018.- Б.30-35

¹⁰⁶ Фахрулдин Али Сафий. Рашахот. Тошкент; 2003, -Б.510
2157

Nasrulloh davri (1827-1860 yy. hukm surgan), o'sha davrdagi tarixiy voqealar va uning hukmronlik davri tugashi bayoni bilan nihoyasiga etadi.

Xumuliy amir SHohmurodning hukmronligi davrini yoritish jarayonida Naqshbandiya, Qodiriya, Kubraviya, Husayniya va boshqa mashhur tariqat vakillari haqida to'xtalib, amir SHohmurodni ham naqshbandiya mujaddida tariqatidan bo'lganligini, shuningdek, Musoxon Dahbediy va uning xalifalaridan – Xudoyor, Abdulqayum Kashmiriy, Mahmud, Siddiq, Qo'zi Turkistoniy, Muhammadamin Bog'imaydoniy, Rahmat, Hojixo'ja va boshqa buxorolik xalifalar, jumladan Imlo Niyoz CHO'qmoqiy Eshon, Ne'matulloh Oshiq, So'fiy Eshon, Amir CHorbakriy va boshqalar haqida ham ma'lumotlar bergan. Asarda Musoxon Dahbediy va uning xalifalari haqidagi ma'lumotlar ham o'rganilgan. "Ta'rixi Xumuliy" asarida mang'it amirlari alohida ulug'langani bois¹⁰⁷, Sadriddin Ayniy asar muallifini "amir SHohmurod maddohi" deya ta'riflaydi¹⁰⁸. Haqiqatdan ham Xumuliy amir SHohmurod davrini yoritishda madh va tavsifni yuqori darajaga etkazgan. Muallif amir SHohmurod shaxsini Ismoil Somoniy (874-907) darajasigacha ko'tarib, naqshbandiya mujaddidiya tariqatining O'rta Osiyoda rivoj topishi va keng tarqalishini amir SHohmurod faoliyati, uning iroda va homiyligiga bog'laydi. Amir SHohmurod bu tariqatda So'fi Safar Xorazmiy summa al-Buxoriyning muridi bo'lgan¹⁰⁹. Tarixiy voqea va hodisalar bayonida muallif o'zining ko'rgan va eshitganlaridan tashqari Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning "Tuhfai xoniy" va "Kitobi Nodiriy" asarlariga ham to'xtalib o'tgan. U shoir va muarrix Mirzo Sodiq Munshi Jondoriy nomini ham eslab o'tgan. Asarda SHayboniy va Ashtarxoniylar tarixidan ham foydalanganini ta'kidlaydi. SHuningdek, muallif "Tarixi Tabariy", "Ravzatu-s-safo", "Tarixi vaqoei SHohrux sulton", "Nafahotu-l-uns", "Maktuboti hazrati mujaddid(Imomi Rabboniy)" asarlariga ham murojaat etganligi haqida asar sahifalarida to'xtalib o'tgan.

"Tarixi Xumuliy" asarining ahamiyati haqida shuni ta'kidlash joizki, u birinchidan, davr voqealari va hodislari shohidi va guvohi bo'lgan shaxs tomonidan yozilgan; ikkinchidan, Buxoroda mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelish jaryonining bayon etilgan; uchinchidan, asarda etnik va etnomadaniy munosabatlarga oid, o'troq va ko'chmanchi aholi orasida o'zaro aloqalarga doir ma'lumotlar keltiriladi; to'rtinchidan, o'sha davrning adabiy hayoti haqidagi tarixiy ma'lumotlardan tashqari muallifning o'z adabiy faoliyati, shaxsiy hayotiga oid tafsilotlar uchraydi; beshinchidan, asardagi etnonim, toponimiya, terminologiya va tasavvuf tariqatlari tarixiga oid ma'lumotlar ham juda qiziqarlidir. Xumuliyning "Tarixi Xumuliy" asari O'zbekiston tarixining mang'itlar sulolasi hukmronligi davriga oid muhim ma'lumotlarni beradi. Samarqanddagi Markaziy Osiyoni o'rganish xalqaro instituti (IICAS) va Toshkentdagi YUNESKO vakolatxonasining moddiy yordami bilan O'zRFA SHarqshunoslik institutining ilmiy xodimlari G'ulom Karimiy va olimi Iroda Qayumovalar "Tarixi Xumuliy" asarining ilmiy-tanqidiy matnini to'rt nusxada tayyorlab

¹⁰⁷ Муло Жумъакули Хумулий. Тарихи Хумулий / Ғ.Каримов ва И.Қаюмова нашрга тайёрлаган. – Самарқанд-Тошкент, 2013

¹⁰⁸ Айни С. Тарихи амирони мангитияи Бухоро – С.15.

¹⁰⁹ Муло Жумъакули Хумулий. Тарихи Хумулий / Ғ.Каримов ва И.Қаюмова нашрга тайёрлаган. – Самарқанд-Тошкент, 2013

chop ettirdilar¹¹⁰. Asarning kotib mullo Ubaydullo ibn domullo Niyoz Boqiy tomonidan ko'chirilgan birinchi nusxasi 37/VI raqam ostida SHarqshunoslik Instituti qo'lyozmalar fondi xazinasida saqlanmoqda, mazkur nusxani kotib 1278/1861-62 yili kitobat qilgan. Ikkinchi nusxani noshirlar "Samarqand nusxasi" degan va u Samarqand viloyatidagi Mergancha qishlog'ining sokini Abdulloh Muhiddinov, Xumuliyning ustoz Bobojoxo'janing nabirasi So'fixo'ja Mutahharxo'ja o'g'lining qo'lida bo'lib, 15 muharram 1319 hijriy yilda kitobat bo'lgan. Mazkur nusxaning xotimasida Muhammad Mutahharxo'ja asarni Urgut shahrining So'fiyon guzarida 1319/1901-1902 yili ko'chirib tugatganini qayd qilingan. Asarning uchinchi nusxasi Dushanbe shahridagi Tojikiston FA sharq qo'lyozmalari xazinasida inventar №9688 raqam ostida saqlanadi. "Tarixi Xumuliy"ning to'rtinchi nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti xazinasida 79/XIII raqam ostida saqlanadi. Uni xattot Mirzo Isomiddin Nasafiy 1333/1914- 15 yili mullo Ubaydullo ibn domullo Niyoz Boqiy kitobat qilgan nusxadan ko'chirgan.

XX asrning 50 yillarida A. Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, qaysidir sabablarga ko'ra, nashr etilmay qolgan va tarjima qo'lyozma yozma sifatida O'zR FA SHarqshunoslik instituti kutub xonasida saqlanayotgan manbalardan biri bu – "Tarixi Amir Haydar" asaridir¹¹¹. Mazkur asar XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida yashagan buxorolik olimlarning ijodi mahsulidir. Kitobning noma'lum muharrir tomonidan qisqartirilgan nusxasi etib kelgan bo'lib, qo'lyozma O'zR FA SHarqshunoslik institutida 1836-raqami ostida saqlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Холназарова Л.С. XIX аср маҳаллий муаллифларнинг асарларида манғит ҳумдорлари тарихи\\ XIX – XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. Тошкент – 2018.
2. Мулла Ибадаллах и Мулла Мухаммед Шариф. Тарих-и амир Хайдар ("История эмира Хайдара"). Рукопись ИВ АН РУз. Инв. № 1836
3. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот. Тошкент; 2003
4. Муло Жумъақули Хумулий. Тарихи Хумулий / Ғ.Каримов ва И.Қаюмова нашрга тайёрлаган. – Самарқанд-Тошкент, 2013

¹¹⁰ Холназарова Л.С. XIX аср маҳаллий муаллифларнинг асарларида манғит ҳумдорлари тарихи\\ XIX – XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. Тошкент – 2018.- Б.34.

¹¹¹ Мулла Ибадаллах и Мулла Мухаммед Шариф. Тарих-и амир Хайдар ("История эмира Хайдара"). Рукопись ИВ АН РУз. Инв. № 1836.